
**BARQAROR TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ
TAJRIBALARI****Raupov Shuxrat Soyibovich***Buxoro davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi***MAQOLA
MALUMOTI****ANNOTATSIYA:**

MAQOLA TARIXI:*Received: 09.02.2026**Revised: 10.02.2026**Accepted: 11.02.2026*

KALIT SO'ZLAR:

Yevropa Ittifoqi barqaror turizmni rivojlantirish uchun eng ilg'or mintaqaviy tajribaga ega. UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa mintaqasi 2025-yilda jami 793 million xalqaro sayyohni qabul qildi, ushbu ko'rsatkich umumiy sayyohlarning 52 foizini tashkil etadi va pandemiyadan oldingi darajadan ortdi⁴⁹. Yevropa Ittifoqining sohada yetakchilik qilishi barqarorlik tashabbuslarini global miqyosda kengaytirish kabi mas'uliyatni ham yuklaydi. Shuning uchun tadqiqotda turizmni yetakchi hisoblangan Ispaniya, Italiya va Fransiya tajribalarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq deb bilamiz.

Yevropa Ittifoqining barqaror turizm tizimi milliy va xalqaro miqyosda muvofiqlashtirilgan siyosiy vositalar orqali amalga oshiriladi. Eurostat ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa Ittifoqi aholisi 2025-yilda 3,08 milliarddan ortiq sayyohlik safarlarini

⁴⁹ Eurostat. EU tourism nights at record 3.08 billion in 2025 / Eurostat. - European Commission, 16.01.2026. - Mode of access: <https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/w/ddn-20260116-1>

amalgam oshirgan⁵⁰. 2025-yilda Ispaniyaga rekord darajadagi 96,8 million xorijiy sayyoh tashrif buyurdi hamda 2024-yilga nisbatan 3,2% ga ko'pdir.⁵¹ Yevropa Komissiyasining turizm strategiyasida sektorni rivojlantirishning asosiy ustunlari sifatida barqarorlik, innovatsiya va raqamli transformatsiyaga urg'u berilgan.

Ispaniya innovatsion barqaror turizm mexanizmlarini joriy etishda ilk qadamlarni amalga oshirgan mamlakatlardan biri deb ham qarash mumkin. 2016-yil iyul oyida joriy etilgan Balear orollarining barqaror turizm solig'i (Impuesto de Turismo Sostenible, ITS) barqaror turizm loyihalarini amalga oshirishda muhim moliyaviy vosita bo'lib xizmat qilmoqda. 2025-yilda Balear orollari hukumatining ITS bo'yicha ko'rsatkichlari sezilarli darajada o'sgan. 2025-yilgi byudjetga ushbu soliqlardan tushadigan daromad taxminan 136 million yevro bo'lgan⁵². Shuningdek, ushbu soliq Mayorka, Menorka, Ibiza va Formenteradagi turistik turar joylarda tunash uchun qo'llaniladi. Stavkalar turar joy toifasi va mavsumiga qarab har bir kishi uchun kuniga 0,50 yevrodan 4 yevrogacha o'zgaradi⁵³.

Italiyada barqaror turizmni rivojlantirishga qaratilgan 2023-2027-yillarga mo'ljallangan strategik reja ishlab chiqqan. Rejada barqarorlik, innovatsiya va xalqaro hamkorlikka e'tibor qaratiladi⁵⁴. Mamlakatning agroturizm sektori qishloq xo'jaligi hamda turizmni muvaffaqiyatli integratsiyasini barqaror shaklda namoyish etib kelmoqda. Statista ma'lumotlariga ko'ra 2024-yilda Italiyada 26,000 taga yaqin agroturizm muassasalari mavjud bo'lib, ushbu muassasalarga tashrif buyurganlar 5 milliondan oshdi. Italiya qonunchiligidagi 96/2006-sonli qonun (Legge 20 febbraio 2006, n.96), agroturizmning asosiy qishloq xo'jaligi faoliyati bilan bog'liqligini ta'minlaydigan tizimli huquqiy asos hisoblanadi⁵⁵.

Fransiya barqaror turizmni rivojlantirish uchun sertifikatlashtirishga asoslangan yondashuvni ishlab chiqqan. 1998-yilda Teragir uyushmasi tomonidan Fransiyada joriy

⁵⁰ Eurostat. EU tourism nights at record 3.08 billion in 2025 / Eurostat. - European Commission, 16.01.2026. - Mode of access: <https://ec.europa.eu/eurostat/web/products-eurostat-news/w/ddn-20260116-1>

⁵¹ Spain plans to focus on 'quality over quantity' as tourist numbers hit record high / Teresa Medrano, David del Valle. - Euronews, 04.02.2026.

⁵² Davies, P. Balearics to invest €377m from green tax across 79 projects this winter. - Travel Weekly, 17.12.2024. - Access mode: <https://travelweekly.co.uk/news/balearics-to-invest-e377m-from-green-tax-across-79-projects-this-winter>

⁵³ Agència de Estratègia Turística de les Illes Balears (AETIB). Sustainable Tourism Tax: Projects and Rates 2024-2025. - Illes Balears, 2024. - Access mode: <https://www.illessostenibles.travel>

⁵⁴ Strategic Tourism Plan 2023-2027. - urbanpromo.it, 2025. - Access mode: <https://urbanpromo.it/2025-en/progetti/strategic-tourism-plan-2023-2027/>

⁵⁵ OECD. Promoting the digitalisation of the tourism ecosystem in Italy: A focus on SMEs: OECD Tourism Papers, 2025/13 / OECD. - Paris: OECD Publishing, 11.07.2025. - 46 p. - DOI: 10.1787/63616a85-en.

etilgan “Yashil kalit - Clef verte” yorlig‘i turizm muassasalari uchun yetakchi xalqaro ekoyorliqqa aylandi (1-rasm).



1-rasm. Yashil kalit - Clef verte yorlig‘i⁵⁶

Fransiyada “Clef Verte” xalqaro ekoyorlig‘i bilan sertifikatlangan muassasalar soni sezilarli darajada o‘sgan. 2025-yilgi ro‘yxatda 2,428 ta sertifikatlangan muassasa mavjud bo‘lib, bu 2024-yildagi 1,564 ta muassasadan 55% ga ko‘pdir. Bu o‘rish 2026-yilgi ro‘yxatda ham davom etmoqda, unda rekord darajadagi 3035 ta sertifikatlangan muassasa mavjud bo‘lishi kutilmoqda. Mehmonxonalar esa bu umumiy sonning taxminan 66% ni tashkil qilishi rejalashtirilgan⁵⁷.

Yuqorida berilgan 3 ta yirik sayyohlik industriyasiga ega davlatlarni berilgan manbalar asosida kuchli tomonlarini quyidagilar deb bersak bo‘ladi:

1. Ispaniya siyosat doirasi va fiskal vositalarda ustunlikka ega (turizm solig‘i 133,3 million yevroni tashkil etadi);
2. Fransiya sertifikatlash tizimlarida yetakchilik qiladi (Clef Verte 3,035 ta muassasa bilan - reja bo‘yicha);

⁵⁶ Green Key - The History of Green Key . - greenkey.global, 2025. - Access mode:

<https://www.greenkey.global/history>

⁵⁷ La Clef Verte - Teragir. - laclefverte.org, 2025. - <https://www.laclefverte.org/le-label/teragir>

3. Italiya esa 26,000 ta agroturizm fermasi orqali jamoatchilikning kuchli ishtiroki bilan muvozanatli natijalarni namoyish etib kelmoqda.


Ushbu bir-birini to'ldiruvchi yondashuvlar samarali barqaror turizm bitta vositalarga tayanish o'rniga ko'p o'lchovli mexanizmlarni talab qilishini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib, har bir yondashuvni siyosiy qo'llab quvvatlash, fiskal vositalar, sertifikatlash tizimlari, raqamli integratsiya, jamiyat bilan aloqalarni 5 ballik tizimda baholab chiqdik (1-jadval, 2-rasm).

1-jadval

Mexanizmni o'lchov bo'yicha baholash ballari (1-5 shkalasi)⁵⁸

YONDASHUVLAR	ISPANIYA	ITALIYA	FRANSIYA
Siyosiy qo'llab quvvatlash	5	4	4
Fiskal vositalar	5	3	4
Sertifikatlash tizimlari	4	4	5
Raqamli integratsiya	5	4	3
Jamiyat ishtiroki	3	5	4
O'rtacha	4.4	4	4.0

⁵⁸ Manba: UNWTO, Eurostat, milliy turizm ma'lumotlari asosida muallifning bahosi



2-rasm. Ispaniya, Italiya va Fransiyada barqaror turizm mexanizmlarini qiyosiy baholash

Osiyo Tinch okeani mintaqasi esa Yevropa Ittifoqiga qarama-qarshi kontekstni taqdim etadi. Ushbu mintqa turizmning tez o'sishi, rivojlanayotgan institutsional tuzilmalar va o'ziga xos jamoatchilikka asoslangan yondashuvlar bilan tavsiflanadi. Tadqiqotlar davomida Tailand, Malayziya va Indoneziyada barqaror turizmni rivojlantirish mexanizmlari ko'rib chiqdik. Bu uchta davlat mintaqada ommaviy turizm o'sishini barqarorlik maqsadlari bilan muvozanatlashdagi noyob muammolarini hal qilish bo'yicha innovatsion modellarini ishlab chiqqanlar.

Tailand CBT va institutsional barqarorlik tizimlarida mintaqaviy yetakchiga aylandi. Mamlakat 2024-yilda 35,5 million xalqaro sayyohni qabul qildi va 2019-yilda pandemiyadan oldingi 39,9 millionlik rekordiga yaqinlashdi⁵⁹. Tailandda barqaror turizm infratuzilmasi 2003-yilda qirolik farmoni asosida mamlakatning to'qqizta belgilangan hududida tashkil etilgan. Barqaror turizm ma'muriyati uchun belgilangan hududlar (DASTA) tomonidan boshqariladi⁶⁰. 2023-yilda Tailand Turizm boshqarmasi (TAT)

⁵⁹ Kasemsuk, N. Tourism revival goes into reverse . - Bangkok Post, 21.07.2025. - Access mode:

<https://www.bangkokpost.com/business/general/3072756/tourism-revival-goes-into-reverse>

⁶⁰ Rungchavalnont, P. Community-Based Tourism: Empowering Local Champions for Sustainable Tourism in Thailand . - United Nations Development Programme (UNDP) Thailand, 06.11.2022. - Access mode:

BMTning Barqaror turizm maqsadlariga moslashtirilgan to'rtta o'lchovni qamrab oluvchi barqaror turizm maqsadlarini joriy etdi, bular oqilona boshqaruv, ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir, madaniy muhofaza qilish va ekologik mas'uliyat⁶¹.

Tailandning CBT bozori 2023-yilda 29,6 milliard AQSH dollarga baholangan bo'lib, 2034-yilga kelib 140,3 milliard dollarga yetishi va yillik o'sish sur'ati 15,3% ni tashkil etishi prognoz qilinmoqda⁶². Barqaror turizm tezlashuvi reytingi (STAR) tomonidan sertifikatlash sxemasi sezilarli darajada kuchaydi. TAT 2026-yilda turizm bizneslarining 70 foizini STAR akkreditatsiyasidan o'tkazishga qaratilgan reja ishlab chiqqan. 2025-yilda davomida Tailandning 10 ta destinatsiyasi "Yashil destinatsiyalar" xalqaro e'tirofiga sazovor bo'ldi⁶³.

Malayziya 2016-2025-yillarga mo'ljallangan Milliy ekoturizm rejasi orqali ekoturizmni o'zining milliy turizm strategiyasining asosi sifatida belgilab oldi⁶⁴. Ushbu strategiya natijadorligi Malayziyaning 2023-yil iyul oyida Forbes Advisor tomonidan eng yaxshi 50 ta ekoturizm yo'nalishlari orasida 26-o'rinni egallashi bilan tasdiqlandi⁶⁵. Mamlakat 2024-yilda taxminan 25 million xalqaro sayyohni qabul qildi, Visit Malaysia tomonidan 2026-yilda 35,6 million tashrif buyuruvchi va 147,1 milliard RM tushum olish maqsadi qo'yilgan⁶⁶. 2023-yil sentabr holatiga ko'ra, MIDA (Malaysia Investment Development Authority) umumiy investitsiyalari 2,4 milliard RM bo'lgan 51 ta tabiatga asoslangan

<https://www.undp.org/thailand/blog/community-based-tourism-empowering-local-champions-sustainable-tourism-thailand>

⁶¹ Thailand drives journey to sustainable tourism leadership . - Breaking Travel News, 04.10.2025. - Access mode: <https://www.breakingtravelnews.com/news/article/thailand-drives-journey-to-sustainable-tourism-leadership/>

⁶² Thailand community based tourism market to reach \$140.3 bn by 2034 . - Allied Market Research, 2025. - Access mode: <https://www.alliedmarketresearch.com/press-release/thailand-community-based-tourism-market.html>

⁶³ Thailand named to 2025 Green Destinations Top 100 with ten destinations recognised for sustainable tourism . - Thai News Bureau (NBT World), 01.10.2025. - Access mode: <https://thainews.prd.go.th/nbtworld/news/print/1460615/?bid=1>

⁶⁴ Kamaruddin, K. National Ecotourism Plan 2016-2025 / Ministry of Tourism, Arts and Culture Malaysia. - COMCEC, 2021. - Access mode: https://www.comcec.org/wp-content/uploads/2021/07/6.4.Malasia_NEP-COMCEC.pdf

⁶⁵ Malaysia Investment Development Authority. Capturing High-Value Nature-Based Tourism Projects - A Sustainable Paradigm Approach for Malaysia. - MIDA, 2024. - Access mode: <https://www.mida.gov.my/capturing-high-value-nature-based-tourism-projects-a-sustainable-paradigm-approach-for-malaysia/>

⁶⁶ Othman A. Tourism Hype, Economic Hangover: The Mirage of Visit Malaysia 2026 / A. Othman // - 2025. - Oktyabr. - DOI: 10.13140/RG.2.2.12533.44004.

turizm loyihasini ma'qulladi, bu esa potentsial ravishda 4252 ta ish o'rni yaratishga imkon berdi⁶⁷.

Borneo sohilidagi Sabah shtati Malayziyaning yetakchi ekoturizm yo'nalishiga aylandi. 2024-yilda 3,1 milliondan ortiq sayyohni qabul qildi, turizmining YaIM qo'shgan umumiy hisssasi esa 13,7 milliard RMga yetdi⁶⁸. Sabahning Turizmni rivojlantirish strategiyasi uchta asosiy elementga urg'u beradi, ya'ni bevosita jamoat manfaatlari va resurslar imkoniyatiga moslashtirilgan rivojlanish, minimal salbiy ijtimoiy-madaniy va ekologik ta'sir qilishdir. Malayziyada ekoturizm (57,8%) va tabiatga asoslangan tajribalar (45,7%) ichki sayohatlarning asosiy motivatsiyalari qatoriga kiradi⁶⁹. Bu esa bozorning barqarorlik maqsadlariga kuchli mos kelishini ko'rsatadi.

2-jadval

O'zbekiston uchun ustuvor amaliy harakatlar rejasi⁷⁰

Bosqich	Ustuvor harakat	Xalqaro model	Vaqt jadvali
1-bosqich: Asos	Milliy barqaror turizm standartini (GSTC bilan moslashtirilgan) ishlab chiqish	Qozog'iston ST RK 2993	2025-2026
	Barqaror turizmni muvofiqlashtirish bo'limini tashkil etish	Tailand DASTA	2025-2026
2-bosqich: Sinovdan o'tkazish	YuNESKOning meros obyektlarida sinov sertifikatini	Indoneziya Tri Hita Karana	2026-2027
	Mahalla asosidagi jamoat turizmi dasturini ishga tushirish	Tailand CBT modeli	2026-2027

⁶⁷ Malaysia Investment Development Authority. Capturing High-Value Nature-Based Tourism Projects - A Sustainable Paradigm Approach for Malaysia. - MIDA, 2024. - Access mode: <https://www.mida.gov.my/capturing-high-value-nature-based-tourism-projects-a-sustainable-paradigm-approach-for-malaysia/>

⁶⁸ Sabah tourism contributes RM13.7 bln to economy, employs nearly 388,000, says Jafry . - The Borneo Post (via Brunei Direct), 16.12.2025. - Access mode: <https://www.theborneopost.com/2025/12/16/sabah-tourism-contributes-rm13-7-bln-to-economy-employs-nearly-388000-says-jafry/>

⁶⁹ Wan Shamshudi, W. S., Radzuan, F. N., Faizal, N. F. A., Mohd Yaid, S. A., Md Yusof, M. K., Mohd Aznan, E. A. Factors that influence domestic tourists' decision to visit nature-based tourism destinations in the Northern Region of Malaysia // Jurnal Intelek. - 2024. - Vol. 19, Issue 1

⁷⁰ Manba: muallif tomonidan "O'zbekiston 2030" strategiyasi xronologiyasiga muvofiq ishlab chiqilgan

3-bosqich: Kengaytirish	Barqaror turizm fiskal vositalarini joriy etish	Ispaniya Balear solig'i	2028-2029
	GSTC standartini tan olish	45+ tan olingan standartlar	2029-2030

2-jadvalda berilgan amaliy harakatlar rejasi tegishli tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan taqdirda, barqaror turizmni rivojlantirish turli institutsional sharoitlarda amalga oshirilishi mumkin. O'zbekistonning YuNESKOning Jahon merosi obyektlari, an'anaviy mahalla boshqaruv tuzilmalari va tarixiy Ipak yo'li bo'ylab strategik joylashuvining noyob uyg'unligi o'ziga xos barqaror turizm modelini ishlab chiqish uchun zamin yaratadi. O'rganib, tahlil qilib chiqilgan xalqaro mexanizmlarni mahalliy sharoitlarga tanlab moslashtirish orqali O'zbekiston ushbu sohada global amaliyotga hissa qo'shish bilan birga barqaror turizmni rivojlantirishni qisqa muddatda amalga oshirishi mumkin.